<i>Rakhimova Laylo Hamidjon qizi</i>	
Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	586
<i>Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.</i>	
Kurashchilarda muvozanat (balance) va ko'tarib uloqtirish texnikasi o'rtasidagi bog'liqlik	590
<i>Shermatov Gulom Qaxxorovich</i>	
O'qituvchi shaxsining o'zini o'zi rivojlantirishida akmeologik pozitsiyaning o'rni.....	594
<i>Xaitov Abdukosim Abdulakim o'g'li</i>	
Lego-qurilish, konstruksiyalash, robototexnika – STEAM ta'lim moduli sifatida	596
<i>Xamroyeva Sitara Samadovna</i>	



Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	599
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta'limiy o'yinlarni loyihalash va joriy etish	602
<i>Xikmatova Moxinur Amir qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish zamonaviy yechimlarini ishlab chiqish usullari	605
<i>Xolmo'minova Mohichehra Bahrom qizi</i>	
O'quvchilarning biologiyaga qiziqishini oshirishda innovatsion ta'lim metodlari	609
<i>Xudayberganova Madina Saotboy qizi, Abdiqodirov Murodho'ja Alisher o'g'li, Nishanbayeva Arayim User qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida shug'ullanuvchi voleybolchi qizlarning musobaqa oldi jismoniy va psixologik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi	612
<i>Xudoynazarova Sayyora Ravshanovna</i>	
Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalash texnologiyalari	618
<i>Yo'ldoshboyeva Gulmira Xushnudovna</i>	
Umumta'lim maktab seksiyasi uzunlikka sakrovchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasi	621
<i>Zokir Akramov O'tkir o'g'li</i>	
Perseptiv qobiliyat: o'qituvchining o'quvchini tushunish sa'nati	625
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdaliyevich</i>	
Ожидания и потребности родителей как основа продвижения услуг дошкольного образовательного учреждения в Республике Узбекистан	628
<i>Ким Ирина Николаевна, Аббосхонова Зухра Баходир кизи</i>	
Экспериментальная деятельность – метод развития здоровьесберегающей компетентности у детей старшего дошкольного возраста	631
<i>Ким Ирина Николаевна, Алиходжаева Райхон Шавкат кизи</i>	
Подготовка детей-билингвов к школьному обучению: интеграция цифровых и традиционных педагогических методов	634
<i>Ким Ирина Николаевна, Умарова Шоиста Рустамовна</i>	

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGINI XALQARO MEZONLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Axrorov Voris Yunusovich

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Botirova Ozoda Nasir qizi

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti,
Pedagogika tarixi va nazariyasi yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'qish savodxonligini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlar, PISA va PIRLS xalqaro tadqiqotlari natijalari, shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar hamda multimediya resurslarining ta'lim jarayonidagi samaradorligi o'rganiladi. Maqolada o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini baholash, individual yondashuvni ta'minlash, ota-onalar va jamoatchilikni ta'lim jarayoniga faol jalb etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar berilgan. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni xalqaro tajriba asosida ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi, xalqaro standartlar, pedagogik metodlar, interfaol o'qitish, multimediya resurslari, PISA, PIRLS, individual yondashuv, o'quvchilarning rivojlanishi.

Abstract: This article analyzes ways to develop reading literacy among primary school students based on international standards. The study examines national and international academic literature, the results of international assessments such as PISA and PIRLS, as well as modern pedagogical approaches, interactive teaching methods, and the effectiveness of multimedia resources in the educational process. The article presents practical recommendations for assessing reading skills, ensuring individualized instruction, and actively involving parents and the wider community in education. The research findings provide a basis for developing strategies grounded in international experience aimed at improving the quality of primary education and fostering students' critical thinking and communication competencies.

Key words: primary education, reading literacy, international standards, pedagogical methods, interactive teaching, multimedia resources, PISA, PIRLS, individualized approach, student development.

Аннотация: В статье анализируются пути развития читательской грамотности учащихся начальной школы на основе международных стандартов. В рамках исследования рассматриваются национальные и международные научные источники, результаты международных исследований PISA и PIRLS, а также современные педагогические подходы, интерактивные методы обучения и эффективность использования мультимедийных ресурсов в образовательном процессе. В статье представлены научно-практические рекомендации по оценке навыков чтения, обеспечению индивидуального подхода к обучению, а также по активному вовлечению родителей и общественности в образовательный процесс. Результаты исследования позволяют разработать стратегии, основанные на международном опыте, направленные на повышение качества начального образования и развитие критического мышления и коммуникативных навыков учащихся.

Ключевые слова: начальное образование, читательская грамотность, международные стандарты, педагогические методы, интерактивное обучение, мультимедийные ресурсы, PISA, PIRLS, индивидуальный подход, развитие учащихся.

KIRISH

Boshlang'ich ta'lim – har bir bolaning shaxsiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishining poydevorini tashkil etadigan eng muhim ta'lim bosqichidir. Aynan ushbu davrda shakllanadigan bilim, ko'nikma va malakalar bolaning butun hayoti davomida rivojlanishiga yo'naltiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Xususan, o'qish savodxonligi o'quvchilarning barcha fanlarni o'zlashtirishidagi asosiy kompetensiya hisoblanib, u nafaqat akademik muvaf-



faqiyatni, balki ijtimoiy va madaniy muhitga moslashish imkoniyatlarini ham belgilaydi. Jahon miqyosida o'qish savodxonligi bolalarning tanqidiy fikrlash, muloqot qilish, axborotni tahlil qilish va uni mantiqiy ravishda qayta ishlash qobiliyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini nafaqat milliy, balki xalqaro standartlar asosida rivojlantirishga qaratilgan.

So'nggi yillarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholashda PISA (Programme for International Student Assessment) va PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) kabi xalqaro tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu dasturlar o'quvchilarning o'qish qobiliyatlarini tizimli ravishda o'rganish, matnni tushunish darajasini aniqlash, asosiy axborotni ajratib olish hamda uni amaliy kontekstda qo'llash ko'nikmalarini baholash imkonini beradi. Shuningdek, mazkur tadqiqotlar ta'lim tizimining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, samarali pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish hamda milliy ta'lim siyosatini xalqaro tajriba bilan solishtirishga xizmat qiladi.

Milliy tajriba nuqtai nazaridan qaralganda, o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Ulardan eng dolzarb bo'lganlari quyidagilardan iborat: o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'quv metodikalari bilan yetarli darajada tanish emasligi, darslik va o'quv resurslarining o'quvchilarning yosh va ehtiyojlariga to'liq mos kelmasligi, individual yondashuvning yetishmasligi hamda matnni chuqur tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan samarali strategiyalarning amaliyotda kam qo'llanilishi. Shu sababli o'qish savodxonligini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish pedagoglar uchun nafaqat akademik samaradorlikni oshirish, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish qobiliyatlarini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan kommunikativ, interfaol va differensial metodlar o'quvchilarning o'qish jarayonida faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi. Jumladan, interaktiv o'quv mashg'ulotlari, jamoaviy loyihalar va muloqotga asoslangan ta'lim faoliyati o'quvchilarning matn bilan ishlash, asosiy ma'lumotlarni ajratib olish, fikrini shakllantirish hamda yozma va og'zaki nutqni rivojlantirish ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida multimediya resurslari, elektron kitoblar va raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish o'quv faoliyatini yanada qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini yaratadi.

Xalqaro tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish faqat dars soatlarini ko'paytirish yoki matn hajmini oshirish bilangina cheklanmaydi. Muhimi, ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olish, tanqidiy fikrlash va muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish, shuningdek, ularni mustaqil o'qishga rag'batlantirishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich ta'lim muassasalarida pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish, o'quv metodikalari va didaktik resurslar sifatini takomillashtirish hamda ta'lim jarayonini xalqaro mezonlar bilan uyg'unlashtirish muhim vazifa hisoblanadi.

Mazkur maqola boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajriba, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va milliy ta'lim tizimidagi amaliyotlarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini baholash mezonlari, samarali metodikalar, pedagogik texnologiyalar hamda ularni amaliyotga joriy etish yo'llari yoritiladi. Shuningdek, xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish orqali o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirishga qaratilgan takliflar ilgari suriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish masalasi so'nggi yillarda nafaqat milliy, balki xalqaro ta'lim tadqiqotlarida ham keng o'rganilmoqda. Xususan, PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) va PISA (Programme for International Student Assessment) kabi xalqaro dasturlar o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini tizimli ravishda baholash imkonini yaratadi. Mazkur tadqiqotlar natijalari o'qish savodxonligi faqat matnni o'qish va tushunish bilan cheklanmasdan, balki o'quvchilarning muloqot qilish, fikrini ifodalash, tahlil qilish va matn bilan ishlash qobiliyatlarini ham qamrab olishini ko'rsatadi ^[1].

PIRLS va PISA tadqiqotlari ko'plab mamlakatlarda boshlang'ich ta'lim sifatini baholash, pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish va o'quvchilarning matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, xalqaro tadqiqotlar o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasini ta'lim tizimining umumiy samaradorligi bilan bog'laydi. Masalan, Finlyandiya va Singapur kabi mamlakatlarda o'quvchilarning yuqori darajadagi o'qish ko'nikmalari innovatsion pedagogik yondashuvlar, individuallashtirilgan ta'lim va zamonaviy o'quv resurslaridan samarali foydalanish orqali ta'minlanayotgani qayd etiladi ^[2].

Milliy kontekstda ham o'qish savodxonligini rivojlantirish masalasi qator ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Jumladan, S. Mamatqulov boshlang'ich ta'limda matnni tushunish va o'qish tezligini oshirishga qaratilgan metodikalarni tahlil qilib, ularni ta'lim amaliyotiga joriy etish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi ^[3]. Uning fikricha, o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish dars soatlarini ko'paytirish orqali emas, balki individual yondashuv, interfaol mashg'ulotlar va matn tahliliga asoslangan strategiyalarni qo'llash orqali samarali amalga oshiriladi.



Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda o'qish savodxonligini rivojlantirishning bir nechta asosiy yondashuvlari ajratib ko'rsatiladi. Jumladan, kommunikativ yondashuv o'quvchilarda matnni tushunish va undan muloqot jarayonida foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, u o'qilgan materialni tahlil qilish, asosiy axborotni ajratib olish va fikrni mantiqiy ifodalash imkonini beradi [4].

Interfaol yondashuv esa jamoaviy faoliyat, loyiha asosida o'qish va kreativ mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning matn bilan ishlash ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi hamda ularning mustaqil fikrlash va tahliliy qobiliyatlarini rivojlantiradi [5].

Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar elektron va multimediya resurslaridan foydalanish o'quvchilarning o'qish savodxonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Elektron kitoblar, interaktiv dasturlar, audio va video materiallar matnni o'zlashtirish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Jumladan, E. Hiebert va D. Reutzel tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda multimediya vositalaridan foydalanish o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi qayd etilgan [6].

O'zbekiston Respublikasi sharoitida ham boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini rivojlantirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, N. Karimova o'quvchilarning matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan milliy metodikalarni o'rganib, individual yondashuv va o'quvchilarning qiziqishlariga moslashtirilgan interfaol mashg'ulotlarning samaradorligini ta'kidlaydi [7]. Shu bilan birga, metodistlar xalqaro tajribani milliy ta'lim tizimiga moslashtirish orqali ta'lim jarayoni sifatini oshirish imkoniyatlarini ko'rib chiqmoqdalar.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda nafaqat pedagogik yondashuvlar, balki ota-onalar va jamoatchilikning faol ishtiroki ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, uy sharoitida mustaqil o'qishga rag'batlantirish, ota-onalar tomonidan qo'llab-quvvatlovchi ta'limiy muhitni yaratish o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi [8].

Shu bilan birga, o'qish savodxonligini baholash mezonlariga ham alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning o'qish darajasini aniqlashda faqat o'qish tezligi yoki grammatik to'g'rilik yetarli emas. Muhimi, matnni tushunish darajasi, asosiy axborotni ajratib olish, tafakkur yuritish va fikrni mantiqiy ifodalash qobiliyatidir. Shu bois ta'lim jarayonida diagnostik testlar, portfellar va interfaol baholash vositalaridan foydalanish tavsiya etiladi [9].

Adabiyotlar tahlili natijasida o'qish savodxonligini rivojlantirishning quyidagi asosiy yo'nalishlari aniqlanadi:

1. Xalqaro tajriba asosida milliy metodikalarni takomillashtirish;
2. Kommunikativ va interfaol pedagogik yondashuvlarni qo'llash;
3. Multimediya va elektron resurslardan samarali foydalanish;
4. Individual yondashuv va differensial o'qitishni joriy etish;
5. Ota-onalar va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish;
6. Baholash va diagnostika vositalarini optimallashtirish.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili o'quvchilarning o'qish savodxonligini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish murakkab, biroq amaliy jihatdan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan jarayon ekanligini ko'rsatadi. Ushbu jarayon pedagogik yondashuvlar, metodik resurslar, baholash tizimlari va jamoatchilik qo'llab-quvvatlashini uyg'unlashtirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro tajriba va milliy sharoitni uyg'unlashtirish orqali boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini oshirishga qaratilgan samarali strategiyalarni ishlab chiqish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy ishda hujjatlarni tahlil qilish, xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarni o'rganish, PISA va PIRLS tadqiqotlari natijalarini solishtirma tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar tizimlashtirildi, taqqoslandi hamda umumlashtirish va mantiqiy tahlil asosida xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish masalasi murakkab va ko'p qirrali hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nafaqat milliy, balki xalqaro tadqiqotlar ham o'quvchilarning matnni tushunish, asosiy ma'lumotlarni ajratish va muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. PISA va PIRLS tadqiqotlarining natijalari esa boshlang'ich ta'limda xalqaro standartlar bo'yicha baholash hamda pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.



Muhokama jarayonida, birinchi navbatda, xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Finlyandiya, Singapur va Shveysariya kabi mamlakatlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligi yuqori darajada bo'lishi pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar, individual yondashuv hamda innovatsion resurslardan samarali foydalanish bilan bog'liq ^[2]. Ushbu tajribani o'zlashtirish va milliy ta'lim tizimiga joriy etish orqali o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirish mumkin.

O'zbekiston sharoitida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud. Ular orasida darslik va o'quv resurslarining zamonaviy talablarga mos kelmasligi, o'qituvchilarning individual yondashuv va interfaol metodlar bo'yicha yetarlicha tayyorgarlikka ega emasligi, shuningdek, o'quvchilarning matn bilan ishlash ko'nikmalarini tizimli rivojlantirish bo'yicha samarali strategiyalar yetarli darajada qo'llanilmasligi ajralib turadi ^[7]. Mazkur muammolarni hal etish uchun milliy metodikalarda xalqaro tajribani hisobga olish, o'quv jarayonini innovatsion metodlar bilan boyitish va pedagoglarning malakasini oshirish muhimdir.

Interfaol va kommunikativ pedagogik yondashuvlarning samaradorligi tadqiqotlarda keng yoritilgan. Vygotsky (1978) nazariyasiga ko'ra, bolaning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda ijtimoiy muloqot hamda hamkorlik jarayoni muhim rol o'ynaydi ^[5]. Shu nuqtai nazardan, jamoaviy loyihalar, matn asosida guruh ishlari va interaktiv mashg'ulotlar o'quvchilarning matn bilan ishlash, asosiy ma'lumotlarni ajratish va fikrini ifodalash ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Bundan tashqari, multimediya va elektron resurslardan foydalanish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda matnni tushunish jarayonini yanada samarali qiladi ^[6].

Baholash tizimlari ham o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Adabiyotlar tahliliga ko'ra, o'quvchilarning matnni tushunish darajasini aniqlashda diagnostik testlar, portfellar va interfaol baholash vositalari samarali hisoblanadi ^[9]. Shu bilan birga, xalqaro baholash tizimlari, xususan PISA va PIRLS, o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini xalqaro kontekstda solishtirish hamda milliy ta'lim siyosatini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Muhokamada yana bir muhim jihat – ota-ona va jamoatchilikning rolidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalarning o'qish savodxonligini oshirishda uy sharoiti, ota-onaning qo'llab-quvvatlashi va mustaqil o'qishga jalb etish strategiyalari muhimdir ^[8]. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich ta'lim muassasalarida pedagoglar, ota-onalar va jamoatchilik o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Muhokama shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Bu jarayon pedagogik yondashuvlar, metodik resurslar, baholash tizimlari va jamoatchilik qo'llab-quvvatlashini birlashtirishni talab qiladi. Shu bilan birga, xalqaro tajriba va milliy sharoitni uyg'unlashtirish orqali boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini oshirish bo'yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish mumkin.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, eng samarali yondashuv – interfaol va kommunikativ metodlarni qo'llash, multimediya resurslaridan foydalanish, individual yondashuvni ta'minlash hamda xalqaro baholash tizimlarini milliy sharoitga moslashtirishdan iborat.

Shu nuqtai nazardan, tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim muassasalarida o'qish savodxonligini rivojlantirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni ilgari suradi:

1. Pedagoglarning malakasini oshirish va xalqaro metodik tajribani o'rgatish;
2. Interfaol va kommunikativ yondashuvlar orqali o'quv jarayonini boyitish;
3. Multimediya va elektron resurslardan samarali foydalanish;
4. Individual yondashuv va differensial o'qitishni joriy etish;
5. Uy va maktab sharoitida ota-ona va jamoatchilikni jalb qilish;
6. Xalqaro baholash tizimlarini milliy kontekstga moslashtirish.

Umuman olganda, muhokama shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish nafaqat akademik muvaffaqiyat, balki bolalarning shaxsiy rivojlanishi, tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish bugungi kunda nafaqat milliy, balki xalqaro ta'lim standartlari nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qish savodxonligi bolalarning barcha fanlarni o'zlashtirishidagi asosiy ko'nikma bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy mulohaza yuritish va muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantirishda markaziy rol o'ynaydi.



Adabiyotlar tahlili va tadqiqot muhokamasi shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali yondashuvlar quyidagilardan iborat: interfaol va kommunikativ pedagogik metodlar, multi-mediya va elektron resurslardan foydalanish, individual yondashuvni ta'minlash, shuningdek, ota-ona va jamoatchilikning ta'lim jarayoniga faol jalb etilishi. Shu bilan birga, xalqaro baholash tizimlari – PISA va PIRLS – o'quvchilarning o'qish savodxonligini xalqaro kontekstda solishtirish hamda milliy ta'lim strategiyasini takomillashtirish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy ta'lim tizimida xalqaro tajriba asosida metodik resurslarni takomillashtirish, pedagoglarning professional salohiyatini oshirish va o'quv jarayonini innovatsion yondashuvlar bilan boyitish o'quvchilarning o'qish savodxonligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish bo'yicha integratsiyalashgan, tizimli va samarali strategiyalarni ishlab chiqish zarur.

Natijada, o'quvchilarning o'qish savodxonligini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish ta'lim sifatini oshirish, bolalarning shaxsiy va intellektual rivojlanishini ta'minlash hamda milliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mullis, I. V. S., Martin, M. O., Foy, P., & Hooper, M. (2017). PIRLS 2016 International Results in Reading. Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center.
2. Sahlberg, P. (2015). Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? New York: Teachers College Press.
3. Mamatqulov, S. (2018). O'qish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi. O'zbekiston pedagogik tadqiqotlari, 5(2), 33–41.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
6. Hiebert, E. H., & Reutzel, D. R. (2010). Reading Comprehension Research and Instruction. Newark, DE: International Reading Association.
7. Karimova, N. (2020). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikalari. Pedagogika va innovatsiyalar, 3(12), 45–52.
8. Snow, C. E. (2010). Academic language and the challenge of reading for learning about science. Science, 328(5977), 450–452.
9. Guthrie, J. T., Wigfield, A., & You, W. (2007). Instructional contexts for reading motivation and engagement. Educational Psychologist, 42(2), 75–90.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.